

PSIXOLOGIYADA QOBILIYATLARNING PSIXOLOGIK TUZILMASI VA UNING TURLARI

Xudoyberganov Ollombergan Ilhom o'g'li

*Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti chimboy fakulteti amaliy
psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Mambetniyarova Venera

*Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrasi assistenti*

Annotatsiya: maqolada qobiliyatlarning psixologik tuzilmasini o'rganiladi. Qobiliyatlar insonning turli faoliyat sohalarida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydigan psixologik omillar to'plamini ifodalaydi. Maqolada intellekt, emotsional qobiliyatlar, ijodkorlik, ijtimoiy qobiliyatlar kabi asosiy komponentlar tahlil qilinadi. Ushbu tahlil qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish orqali inson salohiyatini oshirish yo'lida yangi yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Kalit so'z: intellekt, ijtimoiy ustanovka, iste'dot, qobiliyatlarni o'lchash muammosi, persiptiv qobiliyat.

Abstract: the article examines the psychological structure of abilities. Abilities represent a set of psychological factors that ensure a person's success in various fields of activity. The article analyzes the main components such as intelligence, emotional abilities, creativity, and social skills. This analysis points to new directions in the development of human potential through the identification and development of abilities.

Key word: intelligence, social institution, talent, ability measurement problem, perceptive ability.

Аннотация: в статье рассматривается психологическая структура способностей. Способности представляют собой совокупность

психологических факторов, обеспечивающих успех человека в различных сферах деятельности. В статье анализируются такие основные компоненты, как интеллект, эмоциональные способности, креативность и социальные навыки. Данный анализ указывает на новые направления развития человеческого потенциала через выявление и развитие способностей.

Ключевые слова: интеллект, социальный институт, талант, проблема измерения способностей, перцептивная способность.

Qobiliyatlar inson faoliyatining muhim asosini tashkil etadi. Ular odamlarning o'z maqsadlariga erishishdagi salohiyatini belgilaydi va shaxsiy ham professional muvaffaqiyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Psixologik tuzilma nuqtai nazaridan qobiliyatlar bir nechta komponentlardan iborat bo'lib, har biri o'zining o'rniga ega. Intellect, emotsional qobiliyatlar, ijodkorlik va ijtimoiy ko'nikmalar birgalikda insonning turli vazifalarini bajarish qobiliyatini shakillantiradi. Bu ko'nikmalar bilan tanishib chiqsak:

1. Intellect - muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatidir.
2. Emotsional qobiliyatlar- boshqalar bilan munosabatda bo'lish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati.
3. Motivatsiya- maqsadga erishish uchun ichki va tashqi motivlarning ahamiyati.
4. Ijodkorlik- yangi g'oyalar yaratish va mavjud muammolarni yangicha usulda hal qilish qobiliyati.
5. Ijtimoiy qobiliyatlar- guruhda ishlash va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyati.

Odamlarning o'quv, mehnat va ijtimoiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, shu insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovattining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiya ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lanib o'rganiladi. Xar bir normal odam o'zining aqlli bo'lishini xohlaydi, "Men aqilliman" demasa-da , qilgan barcha ishlari , gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. " Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham xafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning Sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan " O'ta aqilli " yoki " O'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: " Falonchining o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, nargisining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan emish" degan iboralar aslida " aqillik" kotegoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobilyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham huddi shunday. Umuman qobilyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolarda. Psixologiyada tug'malik alomatlari bor induvidual sifatlar **layoqatlar** deb yuritiladi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan- oliy nerv tizimi faoliyatining hususiyatlari, miyyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari- ko'z, quloq, burun, teri kabilarning hususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi) , ijtimoiy layoqat-bola tug'ilishi

bilan uni o'rganan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madanyati, qobiliyatini rivojlantrish uchun zarur yartilgan shart sharoitlar maxsuli ularoq shakillanadigan sifatlar (ular ota-ona, oila muhiti ta'lim va tarbiya muassasalari tomonidan yaratiladi)dir.

Qobiliyatlar odatda uch asosiy turga bo'linadi: 1. **Tabiiy qobiliyatlar** : bu inson tug'ilganidan mavjud bo'lgan qobiliyatlar bo'lib, ularning ba'zilari vaqt o'tishi bilan rivojlanishi mumkin. Masalan, tezda o'rganish yoki balandlikni his qilish kabi. 2. **Rivojlangan qobiliyatlar** : bu qobiliyatlar mashqlar, ta'lim va tajriba orqali rivojlanadi. Masalan , sport, musiqani o'rganish yoki kasbiy mahoratlar. 3. **Ijtimoiy qobiliyatlar** : bu qobiliyatlar odamlar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilishda yordam beradi. Masalan, liderlik, jamoaviy ishlash yoki kommunikativ mahorat. Bunday qobiliyatlar insonning turli faoliyat sohalarida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Qobiliyatlarni o'lchash muammosi 19-asrning oxiri - 20 asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganiladi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan , Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash- qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun , masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonarli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi E.A.Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb- hunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratadi va uni " Professional-diaagnostik so'rovnoma" (PDC) deb ataydi. Yana aytib o'tadi bu testda individuallik va ijtimoiy ustanovka haqida ham gap ketadi. **Ijtimoiy ustanovkalar-** bu xarakter,

irodaviy sifatlar, emotsiya va motivatsiyalar kompleksiga egan insonning turli ijtimoiy vaziyatlaridagi faoliyat va xarakterlariga ruhan hozirligi va munosabat bildirish uslubidan kelib chiqadigan chuqur ichki holat sifatida ta'riflab o'tiladi.

Qobiliyat insonning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati va salohiyatidir. Qobiliyatlar tabiiy yoki o'rgangan bo'lib, ular turli sohalarda -jismoniy, intellekt, ijodiy va ijtimoiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Har bir insonning qobiliyati o'ziga xos va individualligi bilan chambarchas bog'liqdir. Qobiliyatlar rivojlanishi uchun ta'lim, tajriba va mashq qilish zarur. Inson o'z qiziqishlari va moyilliklari asosida qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish orqali muvaffaqiyat va maqsadlarga erishishi mumkin.

Psixologiyada qobiliyatlarning psixologik tuzilmasi haqida bir qator olimlar ish olib borgan. Quyidagi olimlarning tadqiqotlari ushbu sohada muhim ahamiyatga ega:

1. Lev Vygotskiy – U qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi, ijtimoiy omillar va madaniyat ta'siri haqida tadqiqotlar olib borgan. Vygotskiy qobiliyatlarni psixologik tizim sifatida tushuntirib, ularni ijtimoiy tajriba orqali o'rganishga urg'u bergan.
2. Aleksey Leontev – Vygotskiyning izdoshi bo'lib, u qobiliyatlarni faoliyat orqali rivojlantirishga oid nazariyalarni ishlab chiqqan. U qobiliyatlarni shaxsning hayotiy faoliyatlari bilan bog'liq tarzda ko'rib chiqqan.
3. Howard Gardner – U "Ko'p intellektlar nazariyasi"ni ishlab chiqqan va insonda mavjud bo'lgan turli qobiliyatlarni turlicha shakllar sifatida tushuntirgan. Gardner o'z tadqiqotlarida qobiliyatlarni muayyan turdagi intellektlar bilan bog'lashni taklif qilgan.
4. John Carroll – U kognitiv qobiliyatlarning ierarxik tuzilmasini o'rganib, (umumiy qobiliyat) omili va uning ko'plab alohida qobiliyatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida izlanishlar olib borgan.

5. Robert Sternberg – Uning "Triaxial qobiliyatlar nazariyasi" insonning qobiliyatlari uch asosiy komponent (analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlar) asosida tuzilganini ta'kidlaydi.

6. Charles Spearman – U qobiliyatlar nazariyasiga " omil" (umumiy qobiliyat) tushunchasini kiritgan bo'lib, bu barcha turdagi qobiliyatlarning asosi sifatida qaralgan.

Mashhur olimlardan biri, psixolog Howard Gardner, qobiliyatlarni aniqlashda muhim tadqiqotlar olib borgan va "Ko'p intellektlar nazariyasi"ni ilgari surgan. Unga ko'ra, insonlar turli qobiliyatlarga ega bo'lib, har bir kishi alohida intellekt shakllarida kuchliroq yoki zaifroq bo'lishi mumkin. Gardner sakkiz turdagi intellektni ajratib ko'rsatadi:

1. Lingvistik intellekt – Til, so'z va yozuv bilan bog'liq qobiliyat.
2. Mantiqiy-matematik intellekt – Mantiqiy fikrlash va matematik qobiliyat.
3. Vizual-makonsal intellekt – Obrazilarni tasavvur qilish, chizish va tushunish qobiliyati.
4. Musiqiy intellekt – Musiqa va ritmni anglash, eshitish qobiliyati.
5. Tana-kinestetik intellekt – Jismoniy harakatlarni aniq boshqarish qobiliyati.
6. Interpersonal intellekt – Boshqalar bilan muloqot va ularni tushunish qobiliyati.
7. Intrapersonal intellekt – O'zini anglash va o'ziga xos his-tuyg'ularni tushunish qobiliyati.
8. Tabiatshunoslik intellekti – Tabiatni tushunish va uning o'zgarishlarini anglash qobiliyati.

Gardner bu nazariyasiga asoslangan testlar orqali odamlarning qaysi sohada kuchli ekanligini aniqlash mumkin, bu esa o'z qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Alfred Binet va David Wechsler kabi olimlar ham qobiliyatlarni aniqlash uchun testlar ishlab chiqqan. Masalan, IQ testlari odamning umumiy intellektual qobiliyatlarini baholashda qo'llaniladi va hozirgi kunda keng tarqalgan.

Mashhur psixolog Robert Sternberg tomonidan ishlab chiqilgan "Triaxial intellektual nazariya" ham qobiliyatlarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Sternberg odam intellektini uch asosiy qismga bo'ladi va har bir qism turli qobiliyatlarni o'z ichiga oladi:

1. Analitik intellekt – Muammoni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyati. Bu intellekt test savollari va akademik ishlar uchun muhimdir.
2. Ijodiy intellekt – Yangi g'oyalar yaratish, o'ziga xos fikrlarni ishlab chiqish va vaziyatlarga moslashish qobiliyati. Ijodiy intellekt san'at, innovatsiya va yangi loyihalarda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Amaliy intellekt – Kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish va o'z bilimlarini amalda qo'llash qobiliyati. Bu turdagi intellekt odamlarga hayotiy tajribalardan foyda olish va muammolarni real hayotda hal qilishda yordam beradi.

Sternbergning testlari insonning qaysi intellektual sohada kuchli ekanligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ba'zi odamlar mantiqiy masalalarni yaxshi hal qilsalar, boshqalari ijodiy muammolarni yechishda ustun bo'lishadi. Bu testlar insonlarning qobiliyatlarini chuqurroq tushunishga va o'z kuchli tomonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

"Barcha hayvonlarni daraxtga chiqishga majbur qilgan o'qituvchi"

Bir kuni o'rmonda barcha hayvonlar maktab ochishdi. Ularning o'qituvchisi esa qobiliyatlarni o'lchash uchun har bir hayvondan daraxtga chiqishni talab qildi. Daraxtga chiqish vazifasi maymun uchun oson, baliq uchun esa imkonsiz edi. Fil, toshbaqa, qush va boshqa hayvonlar ham o'zlariga xos tarzda harakat qilishdi. Lekin ko'pchiligi bu vazifani uddalay olmadi.

O'qituvchi shuni anglamadiki, har bir hayvonning o'ziga xos qobiliyati bor edi. Baliq suzishni, qush uchishni, fil esa kuchli bo'lishni yaxshi ko'rardi. Agar o'qituvchi ularga mos vazifalarni tanlaganida, har biri o'z qobiliyatlarini namoyon qila olgan bo'lar edi.

Bu hikoya har bir inson va mavjudotning o'ziga xos qobiliyati borligini va barchaga bitta mezon asosida baho berish to'g'ri emasligini eslatadi.

Qobiliyatlarni aniqlash – bu insonning o'ziga xos imkoniyatlarini tushunishga va ularni hayotda muvaffaqiyatli qo'llashga yo'naltirilgan jarayondir. Ushbu jarayon o'z-o'zini anglash, shaxsiy rivojlanish va kasbiy muvaffaqiyat uchun muhimdir. Qobiliyatlarni to'g'ri aniqlash orqali inson o'ziga mos sohaga e'tibor qaratishi, kuchli tomonlarini rivojlantirishi va zaif tomonlarini yaxshilashi mumkin.

Masalan, Howard Gardnerning "Ko'p intellektlar nazariyasi" har bir insonda turli xil qobiliyatlar mavjudligini tan oladi va ularning individual qobiliyatlarini baholashda kengroq yondashuvni taklif qiladi. Robert Sternbergning "Triaxial intellekt nazariyasi" esa odamlarning analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning muammolarni hal qilish usullariga urg'u beradi.

Qobiliyatlarni aniqlash testlari va nazariyalari odamga qaysi sohada muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyati yuqori ekanini ko'rsatib, unga hayotiy va kasbiy maqsadlarni belgilashda yordam beradi. Bu, o'z navbatida, shaxsning

qoniqish hissini oshiradi va o'zini rivojlantirishga undaydi. Shu sababli, qobiliyatlarni aniqlash nafaqat shaxsiy yutuqlar uchun, balki jamiyatga hissa qo'shish va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun ham juda muhimdir.

ADABIYOTLAR:

1. I. A . Karimov . O'zbekiston 21 asrga intilmoqda "O'zbekiston ", 1999.
2. I. A. Karimov . Barkamol avlod taraqqiyotining poydevori. 1998
3. Andreyeva G.M. Sotsiologik psixologiya 1999.
4. V.M. Karimova . Mustqail fikrslash o'quv qo'llanmasi 2000.
5. R.Sunnatova "Mustqail fikrlash" sharq - 2000.